



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2026-yil “26”-may

220-son

Toshkent shahri

Oliy ta’lim tashkilotlari huzuridagi akademik litseylar hamda ixtisoslashtirilgan maktablarga 2026/2027-o‘quv yili uchun qabul parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida” PQ–279-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-iyundagi “O‘quvchilarni akademik litseylarga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 320-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN

1. Tizimida akademik litseylari hamda ixtisoslashtirilgan maktablari bo‘lgan vazirlik va idoralarning takliflari asosida shakllantirilgan, 2026/2027-o‘quv yili uchun oliy ta’lim tashkilotlari huzuridagi akademik litseylarga qabul parametrlari **1-ilovaga**, ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul parametrlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Huzurida akademik litseylari va ixtisoslashtirilgan maktablari mavjud oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari)ga:

akademik litseylar hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘qishga qabulni sifatli tashkil etish maqsadida joriy yilning 1-iyunidan 7 – 9 nafar a‘zodan iborat tarkibda Maslahat kengashlarini tashkil etsin;

2026/2027-o‘quv yili uchun tasdiqlangan qabul parametrlariga qat’iy rioya qilgan holda qabul jarayonlarining adolatli va shaffof o‘tkazilishini ta’minlasin;

o‘quvchilarni ta’lim tashkilotlariga belgilangan tartibda qabul qilish choralari ko‘rsin.

3. Axborot xizmati (N. Abduqunduzova) ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitish tillari kesimida tasdiqlangan qabul parametrlarini vazirlik va ta’lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilishini tashkil etsin.

4. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari S. Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2026-yil 26-maydagi 20-sonli burug'iga
2-il



**2026/2027-o'quv yili uchun ixtisoslashtirilgan maktablarga
QABUL PARAMETRLARI**

T/r	Ixtisoslashtirilgan maktab nomi	Qabul rejasi
	Respublika bo'yicha jami:	200
1	Samarqand davlat universiteti huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	75
	7-sinf aniq fanlar (fizika, matematika)	75
2	Urganch davlat universiteti huzuridagi fizika-matematika va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab	50
	7-sinf aniq fanlar (fizika, matematika)	25
	7-sinf aniq fanlar (matematika, xorijiy til)	25
3	"TIQXMMI" milliy tadqiqotlar universiteti huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab	75
	7-sinf aniq fanlar (fizika, matematika)	50
	7-sinf aniq fanlar (matematika, xorijiy til)	25